XORAZM VILOYATI XONQA TUMANI HOKIMINING QARORI

Xonqa shaharchasi, Xalqlar do‘stligi ko‘chasi, 30-uy

2024 - yil 12 - mart 80-12-175-Q/24 Xonqa tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 668-sonli qarori va shu yuzadan Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 18-yanvardagi 24-12-0-Q/23-sonli qarorining ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrdagi 668-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 15-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 668-sonli qarori va shu yuzadan Xorazm viloyati hokimining 2024-yil 18-yanvardagi 24-12-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Temir yo‘llarda yuk va yo‘lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi hamda yo‘l qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi negizida Transport vazirligi huzurida Transport nazorati inspeksiyasi tashkil etilganligi hamda unga Transport vazirligining 269 ta shtat birligi o‘tkazilganligi;

Inspeksiya avtomobil, temir yo‘l, suv, elektr transporti, metropoliten va yo‘l xo‘jaligi sohalarida nazorat funksiyalarini amalga oshiradigan respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi;

O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi to‘g‘risidagi nizomi 1-ilovaga;

Harakatdagi temir yo‘l tarkibi va infratuzilmasi obyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma'muriy reglamenti 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

4. Manfaatdor idora va tashkilotlar o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni uch oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.Nurmetov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **M.Davlatov**

Xonqa tuman hokimining
2024-yil 12-martdagi
80-12-175-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Туман hokimining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar

1. Viloyat hokimining 2017-yil 29-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 25-apreldagi “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 238-sonli qarorining ijrosi haqida”gi 248q-sonli qarori hamda Xonqa tumani hokimining 2017-yil 6-maydagi 599q-sonli qarorining 5-bandi yigirma birinchi xatboshisidagi “O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi hududiy boshqarmalarining inspektorlari” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Transport nazorati inspeksiyasi” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. Viloyat hokimining 2017-yil 18-mayda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-maydagi “Investitsiya loyihalari o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi uchun loyihalar tashabbuskorlari o‘lgan tashkilotlarning mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 285-sonli qarorining ijrosi haqida”gi 312q-sonli qarori hamda shu yuzadan Xonqa tumani hokimining 2017-yil 26-maydagi 690q-sonli qarorida ma'lumot uchun qabul qilingan 2-ilovaning rus tilidagi matnining 7-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

"7. Ministerstvo transporta".

3. Viloyat hokimining 2020-yil 9-martda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 5-martdagi "O''zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari huzuridagi Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 123-sonli qarorining ijrosi haqida”gi 92q-sonli qarori hamda shu yuzadan Xonqa tumani hokimining 2020-yil 13-martdagi 305q-sonli qarorida ma'lumot uchun qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari moliya bosh boshqarmalari huzuridagi Avtomobil yo‘llarini rivojlantirish maqsadli jamg‘armalari to‘g‘risidagi nizomning 29-bandida:

oltinchi xatboshidagi “avtomobil yo‘llari sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni (standartlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, idoraviy qoidalar va normalar, yo‘riqnomalar va boshqalar) ishlab chiqish va qayta ishlash hamda” so‘zlari chiqarib tashlansin;

quyidagi mazmundagi yettinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“avtomobil yo‘llari sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni (standartlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, idoraviy qoidalar va normalar, yo‘riqnomalar va boshqalar) ishlab chiqish va qayta ishlash yuzasidan - Transport vazirligi";

yettinchi - o‘ninchi xatboshilar tegishlicha sakkizinchi - o‘n birinchi xatboshilar deb hisoblansin.